

FENTEZI ASARLARDA REALISTIK VA FANTASTIK DUNYOLAR SINKRETIZMI

Tursunova Mohira Ilxomjanovna

Namangan davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi

E-mail: mohiratorsunova1105@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fentezi asarlaridagi realistik elementlar tasviri, ularning asar kompozitsiyasidagi ahamiyati va poetik xususiyatlari tahlil etilgan. Xususan, Joan Roulingning “Xarri Potter” romanidagi fantastik va realistik kategoriyalar uygʻunligi tadqiq etilgan. Maqolada fentezi yoʻnalishida yozilgan asarlarda toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, fizika va tabiat hodisalari hamda qonuniyatlari kabi realistik unsurlar xayolot olamini real olamga yaqinlashtirishi va buning natijasida ushbu yoʻnalishdagi asarlarda realistik va fantastik unsurlarning oʻzaro uygʻunlikdagi tasviri orqali asarning oʻquvchilar tomonidan yengil qabul qilinishi masalasi muhokamaga tortilgan.

Kalit soʻzlar: adabiy xronotop, makon va zamon, realizm, fentezi, “Xarri Potter”, mifologiya, faylasuflar toshi, hayot eleksiri, real olam, xayoliy olam.

СИНКРЕТИЗМ РЕАЛИСТИЧЕСКОГО И ФАНТАСТИЧЕСКОГО МИРОВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ФЭНТЕЗИ

Турсунова Мохира Ильхомжановна

**Исследователь Наманганского государственного института
иностранных языков**

Абстракт. В статье анализируется изображение реалистических элементов в произведениях фэнтези, их значение в композиции произведения и поэтические свойства. В частности, исследуется сочетание фантастических и реалистических категорий в романе Джоан Роулинг «Гарри Поттер». В статье утверждается, что реалистические элементы, такие как топонимы, зоонимы, фитонимы, физические и природные явления и законы использованных в произведениях, написанных в направлении фэнтези, приближают фантастический мир к миру реальному и, в последствие, за счет гармоничного изображения реалистических и фантастические элементы,

литературные произведения таких направлений легко принимается читателями.

Ключевые слова: литературный хронотоп, пространство и время, реализм, фэнтези, «Гарри Поттер», мифология, философский камень, эликсир жизни, реальный мир, воображаемый мир.

SYNCRETISM OF REALISTIC AND FANTASTIC WORLDS IN FANTASY WORKS

Tursunova Mohira Ilkhomjanovna

Researcher, Namangan State Institute of foreign languages

Abstract. The article analyzes the depiction of realistic elements in fantasy works, their significance in the composition of the work and poetic properties. In particular, the combination of fantastic and realistic categories in JK Rowling's novel Harry Potter is explored. The article argues that realistic elements, such as toponyms, zoonyms, phytonyms, physical and natural phenomena and laws used in works written in the direction of fantasy, bring the fantastic world closer to the real world and, subsequently, due to the harmonious depiction of realistic and fantastic elements, literary works of such trends are easily accepted by readers.

Key words: literary chronotope, space and time, realism, fantasy, Harry Potter, mythology, philosopher's stone, elixir of life, real world, imaginary world.

KIRISH. Realizm – adabiyot va san’atdagi real voqelikni o’zining tipik xususiyatlarida sodiqlik bilan takrorlashni maqsad qilgan yo’nalish. Shunday ekan, hech qachon mavjud bo’lmagan fantastik dunyolar tasvirini qanday qilib realizm deb atash mumkin, fantastika dunyosi jodugarlari, ilm-fanga noma’lum va unchalik aqlli bo’lmagan hayvonlari bilan qanday qilib realizm bo’lishi mumkin, degan o’rinli savol tug’ilishi tabiiy. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, muallif yaratgan xayoliy dunyo odamlari uchun ana shu dunyoda mavjud bo’lishning o’zi ham qaysidir ma’noda realizmdir. Sehrgarlar, xayoliy xalqlar va ularning madaniyati, ajdaholar, xudolar, ruhlar, misli ko’rilmagan hayvonlar va boshqalar ana shu dunyo aholisi uchun ajralmas qism bo’lib, ular ma’lum bir realistik qonun-qoidalar asosida hayot kechiradilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Fantastik asarlar xronotopi boshqa turdagi asarlar xronotopidan farq qiladi. Romantik yoki realistik adabiyotda bo'lgani kabi fantastik yo'nalishdagi asarlarda ham badiiy makon va zamon o'ziga xos xususiyatlarga ega. M.M.Baxtin "xronotop" atamasi orqali makon va zamon belgilarining ma'lum bir mazmunli butunlik kasb etishini nazarda tutadi. Bu yerda vaqt zichlashib badiiy ko'rinishga ega bo'ladi; makon esa kuchayadi va zamon, syujet, tarix bilan birga harakatga keladi. Zamon belgilari makonda namoyon bo'ladi, makon esa zamon bilan idrok qilinadi va o'lchanadi. U adabiy xronotopni janr va uning turlarini farqlash funksiyasi bilan aloqador deb hisoblaydi, uning adabiyotdagi shaxs obraziga ta'sirini qayd etadi [1; 235-b].

Tez-tez fantaziya mualliflari adabiy tanqidchilarga "Men yaratgan dunyo Yer sayyorasi emas" qabilida javob beradigan vaziyatga duch kelamiz. Haqiqatdan, ularning gapida jon va mantiq bor: hayolot dunyosi haqiqatan ham bizning dunyomiz qonunlariga muvofiq yashamasligi kerak. Axir, fantaziyaning sehrli olami, mavjudotlari, ulkan odamlari, uchar gilamlari, sehrli uzuklari, qudratli devlariyu uchar ajdarlari bor.

Amerikalik yozuvchi Rojer Jelyazniy fentezi asarlaridagi personajlarning voqe bo'lishi uchun ma'lum bir izohlar shart emasligini ta'kidlab shunday deydi:

"Fikrimcha, fentezi asarimda biror bir o'zga sayyoralik mavjudotni yaratgim kelsa, bu mavjudot aytaylik, to'rtta jodugar tomonidan yaratilgan golem bo'lishi ham mumkin. Men o'zim yaratayotgan bu mavjudotning tabiati haqida uzundan-uzoq izoh va tushunchalar berishim shart emas" [5; 27-b].

Adabiyotshunos olim N.G.Komlevning fikricha, fentezi poetik g'aroyib obrazlarga boy bo'lib, g'ayrioddiy, noreal voqea-hodisalar va xarakterlarni tasvirlaydi [3; 31-b].

To'g'ri, biz yuqoridagi fikrlarni rad eta olmaymiz, biroq bu degani biz sehrli olam tasvirini yaratar ekanmiz, mantiq va realizmning barcha dalillaridan voz kechishimiz kerak degani emas.

TAHLIL VA NATIJALAR. Fantaziya dunyosini yaratish u yashaydigan qoidalarni yaratishdan boshlanadi. Bu syujet ishonchiga putur yetkazadigan

mantiqsiz voqealardan xoli qiziqarli hikoyani o'qishni kutayotgan kitobxonlar va muallif o'rtasidagi kelishuvning so'zsiz asosidir.

Misol uchun, fantastik asarda ajdarlar, sehrgarlar va daraxtlarni xas kabi silkitadigan devlaru ulkan odamlar bo'lishi mumkin. Ammo bosh qahramon dehqon bolasi, u ham real dunyodan kelgan bola bilan bir xil, shuning uchun u daraxtlarni ildizi bilan qo'porib olmaydi. Va agar bunday voqea sodir bo'lsa, fizikaning elementar qonunlari buziladi.

Fentezida ikki – haqiqiy va xayoliy olam o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi va ana shu jarayonda bu ikki olam o'zaro bir-biri bilan aralashib ketadi. Shunisi e'tiborliki, bu turkum asarlarda sehr-joduning mavjud ekani uning xronotopiga ta'sir o'tkazadi. O.A.Kostrova ta'kidlaganidek, "aynan fantastik xronotop makonning egilishi, cho'zilishi va siqilishiga sababchi bo'ladi, vaqtning tezlashishi va sekinlashishi, asar qahramonlarining makon va zamondagi tezkor harakatlanishi va ko'chishi, boshqa obyektlarning yo'qolishi, paydo bo'lishi va tezkor harakatlanishiga imkon beradi" [4; 29-b].

Ingliz yozuvchisi J.K.Rouling qalamiga mansub "Xarri Potter" romani fantaziya, sarguzasht, detektiv, triller kabi turli janrlar xususiyatlarining kombinatsiyasidan iborat. Asar voqealari 1990-yillar Angliyasidagi haqiqiy hayotga o'xshash dunyoda tasvirlangan. Haqiqiy hayotdan farqli o'laroq, Xarri Potter dunyosida sehr-jodudan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan sehrgarlar va jodugarlar oddiy odamlar orasida yashaydi. Oddiy odamlar, ya'ni magllar o'zlarini yaxshi yashirganlari sababli sehrgarlarning mavjudligi haqida hech nima bilishmaydi. sehrgarlar magllar orasida yashasalar-da, ularning o'zlarining dunyolari bor. Ular magllardan mustaqil ravishda, ular bilan aloqa qilmagan holda yashaydilar. "Xarri Potter" muallifi sehrgarlar dunyosini ideallashtirmaydi: u yerda, xuddi haqiqiy dunyoda bo'lgani kabi, yaxshilik va yomonlik, hayot va o'lim, baxt va muammolar mavjud.

Haqiqiy dunyo xronotopi xayoliy Littl Uining shaharchasida joylashgan bir tor ko'chadagi 4-uy orqali tasvirlangan: "A breeze ruffled the neat hedges of

Privet Drive, which lay silent and tidy under the inky sky, the very last place you would expect astonishing things to happen.” [6; 18-b].

Tarjimasi: “Yengil shabada siyohrang osmon ostidagi sokin ko‘chaning chetidagi chiroyli tarzda kesilgan butalarni qo‘zg‘atar va bu yer sirli hodisa sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan joydek tuyulardi”.

Sehrgarlar dunyosi maktablar, banklar kabi rasmiy muassasalarning xronotoplari, shuningdek, sehrgarlar dunyosining yashash joylari va alohida hududlari kabi xronotoplar bilan ifodalangan. Haqiqiy va sehrli dunyo o‘rtasidagi bog‘liqlik Londonda joylashgan Diagon xiyobonidir. Siz u yerga sehrli tarzda faqat “Teshik qozon” mayxonasi orqali maxfiy kodni bilsangizgina borishingiz mumkin. Xogvartsga boradigan poyezd esa 9 ¾ platformadan ketadi:

He was about to go back upstairs when Uncle Vernon actually spoke.

‘Funny way to get to a wizards’ school, the train. Magic carpets all got punctures, have they?’

Harry didn’t say anything.

‘Where is this school, anyway?’

‘I don’t know,’ said Harry, realising this for the first time. He pulled the ticket Hagrid had given him out of his pocket.

‘I just take the train from platform nine and three-quarters at eleven o’clock,’ he read.

His aunt and uncle stared.

‘Platform what?’

‘Nine and three-quarters.’

‘Don’t talk rubbish,’ said Uncle Vernon, ‘there is no platform nine and three-quarters.’

‘It’s on my ticket.’ [6; 68-b]

Tarjimasi:

U endi yuqori qavatga ko‘tarilmoqchi edi Vernon amaki gap boshladi.

“Poyezd – sehrgarlar maktabiga yetib olishning g‘alati usuli. Nima, hamma uchar gilamlar teshilib qoptimi?”

Xarri bunga javoban indamadi.

“Xo‘sh, bu maktab qayerda joylashgan o‘zi?”

“Bilmasam, - dedi Xarri. U bu haqda xali o‘ylab ham ko‘rmagandi. Shundan keyin u cho‘ntagidan Xagrid bergan chiptani chiqardi.

“Men soat 11 da 9 $\frac{3}{4}$ platformadan jo‘naydigan poyezdga chiqishim kerak ekan.”

Buni eshitib xolasi va amakisi bir muddat unga xayron bo‘lib qarab qolishdi.

“Qanday platforma?”

“To‘qqiz va to‘rt dan uch.”

“Bema‘ni gaplarni gapirma, - uning gapini keskin bo‘ldi Vernon amaki. - bunaqa raqamli platforma yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas.”

“Ammo mening chiptamda shunday yozilgan”, - deya e‘tiroz bildirdi Xarri.

Londondagi oddiy odamlar uchun temir yo‘l vokzalidagi 9 $\frac{3}{4}$ platforma bu xayoliy uydirma narsa. Biroq sehrgarlar bunday deb o‘ylashmaydi. U yerga odatiy Londondagi Kings-Kross temir yo‘l vokzalidan borish mumkin. Biroq buning uchun temir yo‘l va devor orqali o‘tish kerak. Bunday qilish esa oddiy odamlarning qo‘lidan kelmaydi. E‘tiborli tomoni shundaki, Kings-Kross Londondagi real va hozir ham mavjud bo‘lgan poyezd stansiyasidir. Romanda bu joy nafaqat odamlar, balki sehrgarlar ham yig‘iladigan joy sifatida tasvirlangan. Sarguzashtlar aynan shu yerdan boshlanadi va o‘quv yili ham aynan shu yerda tugaydi. Platformalar o‘rtasidagi to‘siq – bu sehrli dunyo va oddiy odamlar dunyosini ajratib turadigan chegaradir. Umuman olganda, platformalari 9 raqami ham Joan Rouling tomonidan bekorga tanlanmagan deb o‘ylaymiz. Chunki o‘nlik sanoq tizimida 9 raqami so‘nggi raqam, ya‘ni chegara raqam hisoblanadi. Fikrimizcha, bu yerda 9 raqami ramziy ma‘noga ega, ya‘ni real dunyoning tugab, xayoliy dunyoning boshlanishi yoki aksincha.

Joan Roulingning “Xarri Potter” kitobidagi sehrgarlar dunyosi real dunyodan o‘tib bo‘lmaydigan chegara bilan ajratilmagan. Bu dunyolar doimiy ravishda o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, sehrli dunyo real dunyo ichida tasvirlangan.

Joan Rouling tomonidan tasvirlangan dunyo batafsil o'ylab chiqilgan bo'lib, tavsif va tafsilotlarning ko'pligi, kvazitarix sanalari va aniq rivojlangan ichki mifologiyasi bilan ajralib turadi.

“Xarri Potter”ning adabiy matnida ikkita hikoya uslubi aralashmasi mavjud: fantastik (tabiat qonunlarini buzishga yo'l qo'yiladigan) va realistik. Bayon davomida bu ikki uslubning ba'zan biri, ba'zan esa boshqasi ustunlik qiladi. Realistik fonda fantastik qo'shimchalar, va aksincha, fantastik fonlarda real qatlamlar kuzatiladi. Masalan, bosh qahramon Xarri bir paytning o'zida ham ertak qahramoni, ham hozirgi davr o'quvchilari zamondoshi sifatida tasvirlanadi. Romanning antroponomik maydoni bir vaqtning o'zida real, mavjud dunyoni ham, fantastik, uydirma, sehrli olamni ham aks ettirish imkonini beradi” [2; 24-b].

Bundan tashqari, romanda real hayotda uchraydigan ko'plab narsalarni uchratish mumkin.

‘For your information, Potter, asphodel and wormwood make a sleeping potion so powerful it is known as the Draught of Living Death.’ [6; 103-b].

Asfodelus — bu Asphodelaceae oilasiga mansub ko'p yillik gulli o'simlik turi bo'lib, Karl Linney tomonidan ilk bor 1753-yilda tavsiflangan. Bu o'simlik Yevropa, O'rtayer dengizi havzalari, Afrika, Yaqin Sharq mintaqasi, va Hindiston atroflarida o'sadi.

Bu o'simlik bargi Italiyada pishloqni qisqa vaqt o'rab saqlash uchun ishlatiladi. Turkiyaning Sharqiy Anatoliyasida esa bu o'simlik ovqat tayyorlash jarayonida ham ma'lum bir maqsadda ishlatiladi.

Grek mifologiyasida Asfodel mashhur o'simliklardan biri sanaladi va o'liklar va yer osti dunyosiga oid qarashlar bilan bog'liq holda ishlatiladi. Xomer uni o'liklar to'planadigan makon – katta o'tloqni qoplab turuvchi o'simlik sifatida tasvirlagan. Odatda bu o'simlikni qabrlar atrofiga o'tqazishgan va o'liklar dunyosi ma'budasi Persefona bilan aloqadorlikda bilishgan. Bu o'simlikning o'lim tushunchasi bilan umumiy bog'liqligi, albatta, uning barglari rangining kulrang va sariq rangga moyilligi bilan izohlanadi, zero bu ranglar greklar uchun yer osti dunyosining zulmati va o'limning rangparligini anglatardi. O'ta kambag'al greklar

esa bu o'simlikning ildizini iste'mol qilganlar, shuning uchun bunday taom soyalar uchun mazali taom deb hisoblangan. Asfodel, shuningdek, ilonlar zaxriga qarshi ziddizaxar va sehr-joduga qarshi vosita hisoblagan. Bu o'simlik sichqonlarni o'ldirishda ishlatilgan. Liviyalik ko'chmanchilar bu o'simlikdan chaylalar qurishda foydalanishgan.

Misolda keltirilgan ikkinchi o'simlik ham real hayotda mavjud. Artemisia absinthium xalq ichida shuvoq o't nomi bilan mashhur. shimoliy Afrika, Yevroosiyo, Shimoliy Amerika qit'alarida keng tarqalgan o'simlik. Ayrim turlari manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi, yana ayrim turlaridan esa o'tkir ichimliklar tayyorlashda foydalaniladi. Shuningdek, ginekologik xarakterdagi ayrim kasalliklarga qarshi vositalar tayyorlashda ham ishlatilgan, shuning uchun greklarda tug'ruq ma'budasi Artemida nomi bilan ham ataladi.

Xarri o'simliklar haqidagi ilk darsida professor Sneypdan bezoar tosh haqida quyidagilarni o'rganadi: 'A bezoar is a stone taken from the stomach of a goat and it will save you from most poisons.'[6; 103-b].

Tarjimasi: "Bezoar - echkinning oshqozonidan olingan tosh va u sizni ko'p zaharlardan qutqaradi".

"Bezoar" so'zi forscha "pād-zahr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ziddizahar degan ma'noni anglatadi. Bezoarlar, odatda echkilarning oshqozonida topiladigan hazm bo'lmaydigan oziq-ovqat massalari bo'lib, Ispaniyaning mavrlar tomonidan bosib olinishi davridayoq ziddizahar sifatida tanilgandi. Bezoarning oltin hisobida yuritilishi bu narsaning qanchalik qimmatli bo'lganidan dalolat beradi.

Asarda yana bir o'simlik – mandragora haqida ham so'z boradi. Xarri va uning do'stlari o'simlikshunoslik kursining ikkinchi yilida birinchi marta mandragoralarni uchratishadi. Mandragora ildizlari yig'iladi, chunki ular "petrificus totalus" – "qorong'u afsun" qurbonlarini normal holatga qaytarish qobiliyatiga ega.

Mandragora ildizi qadim zamonlardan beri folklorda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular ba'zan ajin bosgan odamlar sifatida tasvirlangan. Odamlar o'lim faryodidan qo'rqib, ildizini sug'urib olish uchun o'simlikka itni arqon bilan

bog'lab qo'yganlar, bu o'simliklarning shifobaxsh va okkultiv xususiyatlarini tushuntirib beruvchi "o'simliklar kitobi" ensiklopediyasida tasvirlangan. Mandragoralar shuningdek, gallyusinogen va narkotik ta'siri bilan mashhur.

Bundan tashqari, asarda tarixda yashab o'tgan ayrim mashhur shaxslar ismiga ham duch kelasiz. Masalan, Nikolas Flamel obrazini olaylik. Asarda yozilishicha, Xermiona kitobdan Flamel haqida ma'lumotni do'stlariga o'qib beradi. U yerda yozilishicha, Flamel 665 yoshda bo'lib, Faylasuflar Toshining yagona sohibi hisoblangan. Bu tosh yordamida har qanday metalni oltinga aylantirish va abadiy hayot bag'ishlovchi hayot eleksirini tayyorlash mumkin bo'lgan. Gap shundaki, Nikolas Flamel real shaxs bo'lib, 1330-1418 yillarda Fransiyada yashab o'tgan. U kitob savdosi bilan shug'ullangan. Bundan tashqari, Faylasuflar Toshi hamda Hayot Eleksirini yaratish maqsadida alximiya bilan shug'ullangan.

MUHOKAMA. Ko'rib turganingizdek, Joan Rouling fantastik olamida real olamdagi biz uchun tanish bo'lgan obyektlar ham mavjud.

Aslini olganda, fantaziya ertak bo'lib, u oddiy ertakdan faqat xronotopining bir oz o'zgachaligi bilan, shuningdek, o'zida kuchli realizm zaryadini mujassam etishi bilan farq qiladi. Fentezida makon ertakka nisbatan kengroq va vaqt esa nisbatan hozirgi zamonga yaqinligi bilan ajralib turadi. Fentezi – bu ertak, lekin juda realistik ertak. Zero unda ko'plab elementlar hozirgi zamonda mavjud obyektlardir. Aksariyat ertaklardagi zamon kategoriyasida mavhumlik va noaniqlik mavjud. Shunisi aniqki, xalq ertaklarida o'tgan zamon anglashiladi. Fentezidagi zamon kategoriyasi esa uzoq o'tmishni emas, balki qaysidir ma'noda bizning zamonimizga yaqin zamonni eslatadi.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, fantaziyada realizm yo'q ham bo'lishi mumkin, lekin reallik bor bo'lishi lozim. Muallif o'quvchini o'zi yaratgan dunyoni, uning qonuniyatlari, voqeliklari, xalqlari mentaliteti, qahramonlari hamda shunga o'xshash mayda-chuyda detallar va tafsilotlargacha ishonarli va mantiqiy tasvirlash, ishontira olish uchun baribir real narsalardan foydalanishga majbur. Personajlar va muallif qonunlarni turli usullarda buzishni boshlashlari bilan

realizm yo‘qoladi. Agar muallif tomonidan belgilab qo‘yilgan qonunlar hech qanday sababsiz buzila boshlasa, eng aql bovar qilmaydigan va go‘zal dunyo ham o‘quvchi ko‘z o‘ngida jozibadorligini yo‘qotadi. Bu qonunlarni qanday o‘ylab topish, ularni qanday asoslash va ishlashga majbur qilish esa yozuvchi mahoratiga bog‘liq. Zero, hech narsa “shunchaki” bo‘lishi mumkin emas. Xoh real dunyoda bo‘lsin, xoh xayoliy dunyoda bo‘lsin hamma narsa asoslangan bo‘lishi kerak.

Bu mavzuda gap borar ekan, Brendon Sandersonning fantastik dunyo yaratishga yondashuvi haqida ta’kidlash lozim. Zero u o‘zga dunyoni yaratar ekan, nafaqat sehr kuchi ishlaydigan qoidalarini tasvirlaydi, balki fizika, biologiya va tabiat qoidalariga ham e’tibor qaratadi. Misol uchun, Roshar dunyosida kuchli bo‘ronlar bo‘ladi, shuning uchun hayotning barcha turlari o‘zining qandaydir himoyasiga ega: hayvonlar xitinli qobiqlarni o‘stiradilar, o‘simliklar esa yer ostida yashirinishni o‘rganadilar [7]. Bu esa o‘quvchilarda voqealarga ishonch tuyg‘usini paydo qiladi.

Fantast yozuvchi o‘z xayolotida qanday dunyo yaratmasin, uning asari bizning dunyomiz tajribasini hisobga olgan holda o‘qiladi. Aytaylik, fentezi asarida jangovor qo‘shin bor – bu uni dunyo tarixidagi xuddi shunday qo‘shin kabi oziqlantirish va ta’minlash kerakligini anglatadi. Muallif bizga ta’minot haqida gapirmasligi mumkin, lekin bu voqealarning realizmiga zid bo‘lmasligi kerak. Agar bu qo‘shin muz malikasining qal’asini qamal qilish uchun qorli cho‘qqilar orasidan majburan yurish qilsa-yu, askarlar ochlik va sovuqdan azob chekmasa, muallif buning uchun ishonarli mantiqiy asos yaratishi kerak. Aks xolda o‘quvchi ongida ro‘y beradigan voqealarga beixtiyor ishonchsizlik paydo bo‘ladi va asar jozibasi yo‘qoladi.

Har bir muallif, ayniqsa, o‘z dunyosining muallifi, tasavvurida cheksiz ijodkordir. U biznikiga o‘xshash yoki butunlay boshqacha dunyoni yaratishga, uni har kim bilan to‘ldirishga, bizga tanish bo‘lgan atamalar bilan ma’lum tushunchalarni belgilashga yoki o‘zinikini o‘ylab topishga haqli. Fikrimizcha, “realizm” tushunchasini, ko‘pincha, to‘liq tarixiy yoki yuz foiz hayotiy voqeliklar bilan almashib qo‘yish noto‘g‘ri.

XULOSA. Fentezi yo‘nalishida yozilgan asarlarda qo‘llanilgan ayrim toponimlar, zoonimlar, fitonimlar, odamlar, fizika, tabiat hodisalari hamda qonunlari fentezi dunyosini real dunyo bilan yaqinlashtiradi va natijada bunday turkumdagi asarlarda realistik va fantastik elementlarning o‘zaro uyg‘unlashuviga olib keladi. Bu esa asarning kitobxonlar tomonidan nisbatan real voqealardek qabul qilinishiga olib keladi. O‘quvchi fantastik dunyoning ichida mujassam bo‘lgan realizmni odatiy fenomendek qabul qiladi. Bu esa asardagi voqealarning ishonchliligini oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике / М.М. Бахтин // Вопросы литературы и эстетики. – М.: «Художественная литература», 1975.

2. Волкодав Т.В. Структурно-типологические и лексико-семантические параметры литературной сказки Д. К. Роулинг и ресурсы их передачи на русский и немецкий языки: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук: 10.02.20 / Т.В. Волкодав. – Краснодар, 2006.

3. Комлев Н. Г. Словарь иностранных слов. М. : Эксмо-Пресс, 2000.
<http://rus-yaz.niv.ru/doc/foreign-words-komlev/index.htm>

4. Кострова О.А. Пространственно-временная организация художественного мира в произведениях Дж.К. Роулинг // Университетские чтения – Пятигорск, 2009. – С. 28-33;

5. Krulik T. A Few Words from Roger Zelazny. URL:
www.tor.com/2016/05/19/afew-words-from-roger-zelazny/

6. Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher’s stone. – London.: Bloomsbury Publishing Plc, 1997.

7. Sanderson, Brendon. The Hero of The ages. - New York: Tor Publishing group, 2008.